

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

ZUNNUNOV RAXIMJON TEMIRBEKOVICH

**XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Zunnunov Raximjon Temirbekovich

Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari
masalalar 3

Зуннунов Рахимжон Темирбекович

Прямые и обратные задачи для дифференциальных уравнений в
частных производных 29

Zunnunov Rakhimjon Temirbekovich

Forward and inverse problems for partial differential equations 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

ZUNNUNOV RAXIMJON TEMIRBEKOVICH

**XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN
TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA – MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA DOKTORLIK (DSc)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/FM233 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://kengash.mathinst.uz>) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ashurov Ravshan Radjabovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Alimov Shavkat Arifdjanovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Pskhu Arsen Vladimirovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mirsaburov Miraxmat
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Rossiya Fanlar akademiyasi Uzoq Sharq bo'limining
Kosmofizik tadqiqotlar va radioto'lqinlar tarqalishi
instituti (Rossiya Federatsiyasi)**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 2 » iyul soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.:(+99871)- 207-91-40, e-mail: uzbmash@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 185 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.:(+99871) 207-91-40)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 11 » iyun kuni tarqatildi.
(2024 yil «11» iyundagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A. Roziqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.- m.f.d.,
katta ilmiy xodim

A. A. Azamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi Ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Matematikaning turli sohalarida olib boriladigan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishga olib keladi. Xususan, aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar gaz dinamikasida transsonik oqimlarni matematik modellashirishda, aerodinamikada va boshqa sohalarda o'z tadbiqini topadi. Hozirgi vaqtda dunyodagi ko'plab ilmiy maktablarda nolokal chegaraviy masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish jadal rivojlanmoqda, shu jumladan butun va kasr tartibli hosilalarga ega aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy shartlarda kasr tartibli integro-differensial operatorlar qatnashgan masalalarni yechish dolzarb masalarga aylanib bormoqda. Nolokal masalalar nazariyasiga bunday alohida e'tibor tasodif emas. Bunday masalalar lokal masalalarni keng sinfini o'z ichiga oladi va amaliy jihatdan tabiatdagi turli jarayonlarni o'rganishda paydo bo'ladi. Masalan, matematik biologiya, tuproq namligini oldindan aniqlash, plazma fizikasi muammolari, shuningdek, neft qatlamlarining holatini va ishlab chiqirishini matematik modellashirishda bu masalalar katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, simlardagi elektr tebranishlari, yer osti suvlarining filtrlanishi, murakkab tuzilishga ega bo'lgan ob'ektlarda issiqlik tarqalishi, g'ovakli muhit bilan o'ralgan kanaldagi suyuqlik oqimi va boshqa jarayonlar tadqiq qilish nolokal masalalarga keltiriladi.

Kasr tartibli hosilaga ega differensial tenglamalar nazariyasini so'nggi bir necha o'n yilliklarda asosan fan va texnikaning ko'plab sohalarida qo'llanilishi tufayli ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Ma'lumki, butun va kasr tartibli hususiy hosilali tenglamalar nazariyasida teskari masalalar deb, differensial tenglamaning yechimi bilan birgalikda tenglamaning birorta ko'effitsiyentini (ko'effitsiyentlarini) yoki o'ng tomonini, yoki bir vaqtda ko'effitsienti(ko'effisientlari) va o'ng tomonini aniqlash masalalari tushuniladi. Teskari masalalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ularning mexanika, seysmologiya, tibbiy tomografiya va geofizikaning turli bo'limlarida qo'llanilishi bilan uzviy bog'liqdir. Kasr tartibli tenglamani turli jarayonlarni tahlil qilishda model tenglama sifatida foydalanilganda kasr hosilasining tartibi ko'pincha noma'lum bo'ladi va uni to'g'ridan-to'g'ri aniqlashning imkoni yo'q. Shuning uchun, ushbu noma'lum parametrlarni aniqlash bo'yicha teskari masala nafaqat nazariy jihatdan qiziq, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kasr hosilasining tartibi aniqlash ko'plab hayotiy muammolarni modellshtirishda paydo bo'lib, boshlang'ich-chegaraviy masalarni yechishga keladi va yechimning xususiyatlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday masalalar kasr tartibli tenglamalarni o'rganishda yuzaga keladigan teskari masalalarning nisbatan yangi turidir.

Mamlakatimizda ilmiy va amaliy tatbiqqa ega bo'lgan fundamental fanlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni yechish va ularni yechishning samarali usullarini

topishga alohida e'tibor beriladi. Matematika fanlarining ustuvor yo'nalishlari, ya'ni algebra va matematik analiz, xususiy hosilali differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik tizimlar nazariyasi hamda amaliy matematika va matematik modellashtirish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish V.I. Romanovskiynomidagi Matematika institutining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilangan¹. Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar nazariyasini rivojlantirish ushbu qarorni bajarishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiyani tadqiq etish mavzusi va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4979-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi "Matematik ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiynomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli va 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda tegishli yoki belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq qilish dunyodagi ko'plab yirik ilmiy markazlarda va oliy o'quv yurtlarida, olib boriladi. Xususan: Jon Xopkins universitetida (AQSh), Bergakademie Freiberg texnik universitetida (Germaniya), New-Haven universitetida (AQSh), Vilnius universiteti (Litva), Universita degli Studi di Torino (Italiya), Xokkaydo universitetida (Yaponiya), Mathematiques instituti, Bordeaux universiteti (Fransiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Kabardino-Balkar davlat universiteti (Rossiya), Boshqird davlat universiteti (Rossiya), Novosibirsk davlat universiteti (Rossiya), Shimoliy-Sharqiy federal universiteti (Rossiya), Belorusiya davlat universiteti, Samara davlat iqtisodiyot universiteti (Rossiya), Samara davlat universiteti (Rossiya), Samara arxitektura-qurilish universiteti (Rossiya), Qozon federal universiteti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limining S.L. Sobolev nomidagi Matematika instituti (Rossiya), Matematika va matematik modellashtirish institutida (Qozog'iston) va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalarni o'rganish natijasida bir qator natijalar olingan. Xususan: hosilalari butun tartibli bo'lgan aralash tipdagi tenglamalar uchun

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiynomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi № PQ-4387-son qarori

chegaraviy masalalarni yechish nazariyasi ishlab chiqilgan (Turin universiteti, Italiya); hosilalari butun tartibli bo'lgan elliptik-giperbolik va parabola-giperbolik tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish usullari ishlab chiqilgan (Rossiya fanlar akademiyasining Sibir bo'limi matematika instituti, Rossiya fanlar akademiyasining Kabardino-Balkar ilmiy markazining amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti, Qozog'iston matematika va matematik modellashtirish instituti); hosilalari kasr tartibli bo'lgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishda asosiy va fundamental natijalar olingan (Rossiya fanlar akademiyasining Kabardino-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti, New-Haven universiteti va hokazo).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, aralash tipdagi tenglamalar bo'yicha birinchi fundamental natijalar F. Trikom tomonidan olingan. Keyin F. Trikomining natijalari S. Gellerstedt tomonidan umumiy tenglamaga o'tkazildi va u yangi masalalar taklif etdi. Aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini rivojlanishida keyingi qadam F.I. Franklning ishi bo'lib, unda gaz dinamikasida aralash tipdagi tenglamalar uchun masalalarning amaliy qo'llanilishi ko'rsatilgan. Xususan, F.I. Frankl tekis devorli idishdan tovushdan yuqori oqimning chiqish modeli $k(y)u_{xx} + u_{yy} = 0$ Chapligin tenglamasi uchun Trikom masalasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Keyinchalik, M. A. Lavrentyev

$$u_{xx} + \operatorname{sign} y u_{yy} = 0,$$

oddiy turdagi aralash tipdagi tenglama uchun chegaraviy masalalarni tadqiq qilishning maqsadga muvofiqligini taklif qildi. Chunki, bu masala aralash turdagi tenglamalar yechimlarining asosiy xususiyatlari va ularni o'rganish metodologiyasini yanada kengroq ochib beradi. Trikom masalasi yuqoridagi tenglama uchun boshqa masalalarni batafsil o'rganish A. V. Bitsadze tomonidan amalga oshirilgan. Shuning uchun yuqoridagi tenglama hozirgi kunda Lavrentyev-Bitsadze tenglamasi deb nomlangan. Bunday tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o'rganishga qiziqish, ularning sirtlarning cheksiz kichik egrilik nazariyasi va momentsiz o'zgaruvchan ishorali egrilikli sirtlar nazariyasi muammolari bilan bog'liqligi aniqlangandan keyin yanada oshdi.

Aralash tipdagi tenglamalar bo'yicha keyingi tadqiqotlar uch yo'nalishda olib borildi: masalalarning qo'yilishini o'zgartirish, sohaning geometrik shakli va tenglamalar turlarini o'zgartirish. Natijada, nafaqat aralash tipdagi tenglamalar uchun ko'rib chiqilayotgan masalalar doirasi, balki "aralash tipdagi tenglamalar" tushunchasi ham kengaydi. Darhaqiqat, agar boshida ikkinchi darajali aralash elliptik-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar ko'rib chiqilgan bo'lsa, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ikkinchi tartibli aralash parabola-giperbolik va elliptik-parabolik tipdagi tenglamalar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Keyinchalik aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasi S.P. Pulkin, V.F. Volkodavov, M.S. Salaxitdinov, T.D. Jurayev, A.M. Naxushev, V.N. Vragov, M.M. Smirnov, T. Sh. Kalmenov, M. Protter, M.M. Meredov, E.I. Moiseyev, A.P. Soldatov, A.I. Kojanov, K.B. Sabitov, O.A. Repin, A.N. Zarubin, A.A. Polosin, A.V. Psxu, M.A. Sadybekov, M. Mirsaburov, A.K.

Urinov, J.O. Tohirov, O.S. Zikirov, B.I. Islomov, A. Hasanov, A.S. Berdishev va boshqalarning ishlarida rivojlantirildi. Elliptik, giperbolik va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar nazariyasini rivojlantirishda yangi muhim bosqichning boshlanishi "nolokal masalalar", yani nolokal shartli chegaraviy masalalar bo'ldi. Bunday masalalar, birinchi navbatda, A.V. Bitsadze va A. A. Samarskiy tomonidan taklif etilgan Bitsadze-Samarskiy tipdagi masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu masalalarda lokal bo'lmagan shartlar tenglama o'rganilayotgan sohaning chegaraviy va ichki nuqtalarida izlanayotgan yechimning qiymatlarini bog'laydi. Nolokal masalalarga A.M. Naxushev tomonidan taklif etilgan "siljishli masalalar" ham kiradi. Aralash tipdagi tenglamalar uchun siljishli masalalarni o'rganilgan ko'pgina ishlarda model tenglamalar yoki kichik hosilalarda maxsus tanlangan koeffitsiyentlar qatnashgan chiziqli tenglamalar qaralgan. Bundan tashqari, A.M. Naxushev tenglamaning kichik hosilalar oldidagi koeffitsientlari siljishli masalalarni qo'yishda va o'rganishda sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Ma'lumki, model tenglamalar uchun Rimann-Liuvill ma'nosidagi kasr tartibli differensial operator ishlatiladi. Ushbu tenglamalar uchun lokal va nolokal masalalarning to'liqroq sharhi bilan M.M. Smirnov, Yu.M. Krikunov, A.V. Bitsadze, K.I. Babenko A.M. Naxushev, M.S. Salaxitdinov monografiyalarida tanishish mumkin. Demak, kichik hadlarga ega tenglamalar uchun nolokal masalalarni qo'yishda va o'rganishda yanada murakkab tuzilishli operatorlar paydo bo'lishini kutish mumkin. Shu sababdan, kichik hadlarga ega aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalar kam o'rganilgan. M. Mirsaburov va M.X. Ruziev ishlarida singulyar koeffitsientli tenglamalar uchun lokal va nolokal masalalar chegaralangan va chegaralanmagan sohalarda mos ravishda o'rganilgan. M.S. Salaxitdinov va A.K. Urinovlarning monografiyasida

$$\operatorname{sign} y |y|^m u_{xx} + u_{yy} - \lambda^2 |y|^m u = 0, \quad m = \operatorname{const} > 0,$$

tenglama uchun, chegaralangan sohalarda lokal va nolokal chegaraviy masalalar o'rganilgan. Shuningdek, bugungi kungacha yuqoridagi tenglama uchun chegaraviy masalalarni cheksiz sohalarda ko'rib chiqish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda M.X. Gekkiyeva ishidan keyin kasr tartibli hosilalarni o'z ichiga olgan aralash tipdagi model tenglamalar uchun nolokal masalalarni yechishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Bu sohada A.A. Kilbas, O.A. Repin va boshqalarning ishlarini ta'kidlash kerak. Shundek, kichik hadlarga ega tenglamalar uchun cheksiz sohalarda chegaraviy masalalarni o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, butun va kasr tartibli hususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida teskari masalalar deb differensial tenglamaning yechimi bilan birgalikda, tenglamaning koeffitsienti yoki o'ng tomoni, yoki bir vaqtda koeffitsienti va o'ng tomonini aniqlash kerak bo'lgan masalalarga aytiladi. Masalan, ushbu yo'nalishda M. M. Lavrentiev, V. G. Romanov, V. G. Vasiliev, S. I. Kabanixin, K. B. Sabitov, D. K. Durdiyev, J. D. Totiyeva va boshqalarning ishlarini sanab o'tish mumkin. Hozirgi vaqtda ko'plab olimlar kasr tartibli hususiy hosilali differensial tenglamalari uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq qilish bilan shug'ullanmoqdalar. Shuni ta'kidlash

kerakki, ushbu yo‘nalishda asosiy natijalar Sh.A. Alimov, R.R. Ashurov, S.R. Umarov, A.V. Psxu, M. Yamamoto, A. Cabada, B. Turmetov, A. Kochubei, Yu. Luchko, Z. Li, Y. Liu va boshqalarning ishlarida olingan.

Vaqt bo‘yicha kasr tartibli tenglamalarning asosiylaridan biri bu anomal yoki sekin sodir bo‘luvchi diffuziya jarayonlarini modellashtiradigan subdiffuziya tenglamalaridir. Ushbu hususiy hosilali integro-differensial tenglama, klassik issiqlik tarqalish tenglamasida vaqt bo‘yicha birinchi tartibli hosilani $\rho \in (0,1)$ kasr tartibli hosilaga almashtirish orqali hosil qilingan. Anomal diffuziya jarayonlarini tahlil qilishda subdiffuziya tenglamasini model tenglama sifatida olinganda kasr hosilasining tartibi noma‘lum bo‘lsa uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri topish ancha qiyin. Ushbu parametrlarni aniqlash uchun yechim to‘g‘risida bevosita kuzatilgan ba‘zi fizik ma‘lumotlarga ega bo‘lish kerak bo‘ladi. Buning uchun ushbu miqdorni aniqlashning teskari masalasini o‘rganish kerak. Subdiffuziya tenglamalari uchun bunday teskari masalalar bir qator mualliflar tomonidan o‘rganilgan, ushbu yo‘nalishdagi ko‘plab ishlarning sharhi 2019 yilda Li Z., Liu Y., Yamamoto M. maqolasida chop etilgan. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida aytilgan ishlarda qo‘shimcha shart sifatida quyidagi shartdan foydalanilgan:

$$u(x_0, t) = h(t), \quad 0 < t < T, \quad x_0 \in \overline{\Omega}.$$

Ammo bu shart faqat teskari masala yechimining yagonaligini ta’minlashi mumkin. Shu sababli o‘rganilgan barcha ishlarda faqat yechimning yagonaligi ko‘rsatilgan. Lekin J. Jannoning ishida esa, yechimning mavjudligi ham ko‘rsatilgan, biroq u qo‘shimcha shart sifatida boshqa shartdan foydalangan. R. R. Ashurov va S. R. Umarovlar maqolasida yechimning mavjud va yagonaligini ta’minlovchi yangi shartni topishdi. Ular ushbu ishda birinchi xos funksiyasiga proyeksiyasi qarashgan. Shuni eslatib o‘tamizki, ushbu shartdan faqat birinchi xos son nolga teng bo‘lsagina foydalanish mumkin. Subdiffuziya tenglamasida kasr hosilasining noma‘lum tartibining yagonaligi va mavjudligi Sh.A. Alimov va R.R. Ashurovlarning ishlarida birinchi xos son nolga teng bo‘lmagan hol uchun ham isbotlangan. Ushbu ishda olingan qo‘shimcha shart diskret spektrga ega bo‘lgan ixtiyoriy musbat o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorli, vaqt bo‘yicha Riemann-Liouville ma’nosida kasr hosilali subdiffuziya tenglamalari uchun tadbiiq qilingan. Ammo spektr uzluksiz bo‘lgan holda hosilaning tartibini topish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Hosilalarining tartibi butun bo‘lgan aralash tipidagi tenglamalar uchun koeffitsiyentlarni yoki o‘ng tomonni aniqlash bo‘yicha teskari masalalar R.R. Ashurov, S.Z. Jamalov, K.B. Sabitov, E.T. Karimov, T.K. Yuldashev va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Ushbu dissertatsiya ishida kasr tartibli hosilali aralash tipidagi tenglamalar uchun hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masalalar birinchi marta o‘rganilmoqda. Sodir bo‘layotgan jarayonlarni o‘rganish va boshqarishda tenglamaning kasr tartibli hosilaning tartibini to‘g‘ri aniqlash muhim rol o‘ynaydi va ushbu dissertatsiyada bunga misol ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Matematika institutining F-FA-2021-424 «Butun va kasr tartibli differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chegaralanmagan va chegaralangan sohalarda butun va kasr tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalarni hamda subdiffuziya va aralash tipdagi tenglamalarda kasr hosilasini tartibini aniqlash uchun to'g'ri va teskari masalalarni yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot vazifalari:

aralash sohaning elliptik qismi gorizontal chegaralanmagan yo'lakdan iborat bo'lganda aralash tipdagi model tenglamasi uchun siljishli masalalarni tadqiq etish;

chegaralanmagan sohalarda spektral parametrlil aralash tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy tipidagi masalalarni va siljishli masalalarni tadqiq etish;

chegaralanmagan va chegaralangan sohalarda kasr tartibli hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalarni tadqiq etish;

subdiffuziya tenglamalarida kasr hosilasining tartibini va operatorning darajasini aniqlash uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq etish;

aralash tipdagi tenglamalarda kasr hosilalarning tartibini aniqlash uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq etish;

aralash tipdagi tenglamalarda yechimning chegaraviy qiymatini aniqlash uchun to'g'ri va teskari masalalarni tadqiq etish.

Tadqiqotning obykti Gerasimov-Kaputo va Riman-Liuvil ma'nosidagi integral-differensial operatorlari, Mittag-Leffler funksiyalari, Grin funksiyalari, butun va kasr tartibli hususiy hosilali tenglamalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Chegaralanmagan va chegaralangan sohalarda butun va kasr tartibli hususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qo'yilgan masalalarni tadqiq etishda energiya integrallari usuli, Grin funksiyalari usuli, Furrye usuli, integral tenglamalar usuli, matematik analiz usullari, funksional analiz umumlashgan funksiyalar nazariyasi usullari, differensial operatorlar nazariyasi, differensial tenglamalar va matematik fizika tenglamalarini yechish usullaridan foydalanilgan .

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aralash sohaning elliptik qismi gorizontal chegaralanmagan yo'lakdan iborat bo'lganda aralash tipdagi model tenglamasi uchun siljishli masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

chegaralanmagan sohalarda spektral parametrlil aralash tipdagi tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy tipidagi va siljishli masalalarning bir qiymatli yechilishligi isbotlangan;

chegaralanmagan va chegaralangan sohalarda kasr tartibli hosilali aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalarning bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

subdiffuziya tenglamalarida kasr hosilasining tartibini va operatorning darajasini tartibini aniqlashda to'g'ri va teskari masalalarning yechimlarining yagonalik va mavjudlik teoremlari isbotlangan;

aralash tipdagi tenglamalarda kasr hosilalarning tartibini va yechimning chegaraviy qiymatini aniqlash bo'yicha to'g'ri va teskari masalalarning yechimlarini mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni analitik tadqiq etishga imkon beradigan fundamental nazariy natijalar olindi. Bu natijalar katta nazariy qiziqishdan tashqari, ular katta amaliy ahamiyatga ega, masalan, ular fraktal tuzilishga ega muhitdagi turli jarayonlarni tavsiflovchi matematik modellar sifatida ishlatilishi mumkin hamda aniq hisoblash algoritmlarini shakllantirish va tadbirlar bilan bog'liq dolzarb amaliy masalalarni yechish uchun asosdir.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni yechishning ishonchliligi va asosliligi, Grin funksiyasining xususiyatlarini va Mittag-Leffler funktsiyalarini o'rganish va ularni chegaraviy masalalarni yechishda qo'llash masalalarning korrekt qo'yilganligi va matematik analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, teskari masalalar nazariyasi, maxsus funksiyalar nazariyasi, chiziqli operatorlar spektral nazariyalari, integral tenglamalar usullari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada olingan natijalarning ilmiy ahamiyati hosilalari butun va kasr tartibli bo'lgan aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirish, xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining to'g'ri va teskari masalalarini keyingi o'rganishda, shuningdek matematikaning boshqa sohalarida qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning fizik va biologik jarayonlarni, yuklangan jismlarning tebranishlarini, gazo-dinamik jarayonlarni, kapillyar g'ovak muhitda issiqlik almashinuvi va massa almashinuvi nazariyasida turli xil fizik hodisalarni matematik modellashtirishda keng qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar bo'yicha olingan natijalar asosida:

aralash tipdagi tenglamalarda kasr hosilalarning tartibini va yechimning chegaraviy qiymatini bo'yicha to'g'ri va teskari masalalarning yechilish usullaridan NIOKTR 122041800013-4 raqamli "Umumlashtirilgan kasr differentsiatsiyasi operatorlari bilan tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni tadqiq etish, ularni fizik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirishga qo'llash" mavzusidagi xorijiy loyihada kasr hosilalarini o'z ichiga olgan aralash parabola-giperbolik va elliptiko-giprebolik tenglamalar uchun to'g'ri va teskari chegaraviy masalalarni yechishda foydalanilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasi Qabardino-Balkar ilmiy markazining amaliy matematika va

avtomatlashtirish institutining 2023 yil 13-oktabrdagi №01-13/69-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarni qo'llanishi vaqt hosilasi bo'yicha kasr hosilalarini o'z ichiga olgan aralash parabola-giperbolik va elliptiko-giprebolik tenglamalarning analoglari uchun to'g'ri va teskari chegaraviy masalalarni yechishni imkonini bergan;

xususiyl hosilali differensial tenglamalar uchun shekli va sheksiz sohalarda kasr hosilalarning tartibini aniqlash bo'yicha to'g'ri va teskari masalalarni yechishni analitik usullaridan № AAAA-A17-117031050058-9 raqamli "Tebranish tizimlari nazariyasida kasr hisobini qo'llash" mavzusidagi xorijiy loyihada kasr hosilalarining tartibini aniqlashga oid teskari masalalarni yechishda foydalanilgan (Kamchatka davlat universitetining 2023 yil 15 sentabrdagi №49-12-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarni qo'llanishi kasr tartibli hosilalarining tartibini aniqlash uchun teskari masalalarni sonli yechishning algoritmlarini ishlab chiqish imkonini berdi;

elliptik qismining aniqlanish sohasi gorizontaal chegaralanmagan yo'lakdan iborat bo'lgan aralash tipdagi model tenglama uchun siljishli masalalarning yechimlaridan "Turli xil mustahkamlash usullari bilan yangi qurilish materiallarining mustahkamlik xususiyatlarini aniqlash usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada elliptik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar qo'yishda foydalanilgan (Mexanika va inshootlarning zilzilaga chidamliligi institutining 2023 yil 30-noyabrdagi №869-3-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanishi uzilish sijnishlari va yuklamalar usullariga asoslangan tenglamalarning doimiy muhitdagi singulyarliklari, ya'ni elastiklik va plastiklik xossalarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusida bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan 12 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 6 tasi scopus bazalarida indekslangan xorijiy jurnallarda va 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 177 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi va muammolarni o'rganish darajasi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarni sharhi keltirilgan, maqsad va masalalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning

ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi "Chegaralanmagan sohalarda aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar"** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafida maxsus funksiyalar, integral, differensial va integro-differensial operatorlarning haqidagi zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi paragrafda elliptik qismi gorizontallik yo'lak bo'lgan chegaralanmagan sohada aralash tipdagi model tenglamasi uchun ikkita siljishli masalaning bir qiymatli yechiluvchanligi masalasi tadqiq qilingan. Ushbu paragrafning birinchi punktida birinchi siljishli masala tadqiq qilingan.

Quyidagi

$$\operatorname{sign} y |y|^m u_{xx} + u_{yy} = 0, \quad m = \operatorname{const} > 0 \quad (1)$$

tenglamani $\Omega = \Omega_1 \cup l_0 \cup \Omega_2$ chegaralanmagan aralash sohada qaraymiz, bu yerda $\Omega_1 = \{(x, y) : -\infty < x < +\infty, 0 < y < 1\}$, $l_0 = \{(x, y) : 0 < x < 1, y = 0\}$, $\Omega_2 - y < 0$ yarim tekislikda $y = 0$ to'g'ri chiziqning AB kesmasi va (1) tenglamani $A(0, 0)$, $B(1, 0)$ nuqtalardan chiquvchi

$$AC : x - [2 / (m + 2)](-y)^{(m+2)/2} = 0, \quad BC : x + [2 / (m + 2)](-y)^{(m+2)/2} = 1$$

xarakteristikallari bilan chegaralangan sohasi. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$\beta = m / (2m + 4), \quad l_1 = \{(x, y) : -\infty < x < 0, y = 0\}, \quad l_2 = \{(x, y) : 1 < x < +\infty, y = 0\}, \\ l_3 = \{(x, y) : -\infty < x < +\infty, y = 1\},$$

$$\theta_0(x) = \left(\frac{x}{2}, - \left[\frac{m+2}{2} \cdot \frac{x}{2} \right]^{\frac{2}{m+2}} \right), \quad \theta_1(x) = \left(\frac{1+x}{2}, - \left[\frac{m+2}{2} \cdot \frac{1-x}{2} \right]^{\frac{2}{m+2}} \right).$$

Bu yerda $\theta_0(x)$ va $\theta_1(x)$ nuqtalar (1) tenglamaning $(x, 0) \in l_0$ nuqtadan chiqadigan xarakteristikallari va AC , BC xarakteristikallari bilan mos ravishda kesishish nuqtalari.

S_1^∞ **masala.** Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x, y) \in C(\Omega \cup \bar{l}_1 \cup \bar{l}_2 \cup AC \cup BC) \cap C^1(\Omega \cup l_1 \cup l_2) \cap C^2(\Omega_1 \cup \Omega_2)$, bundan tashqari $u_y(x, 0)$ hosila $x = 0$ va $x = 1$ nuqtalarda tartibi $1 - 2\beta$ dan kichik tartibda cheksizligiga aylanishi mumkin;

2) Ω_1 va Ω_2 sohalarda (1) tenglamani qanoatlantiradi;

3) quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$u_y(x, 0) = \psi_i(x), \quad \forall x \in l_i, i = 1, 2;$$

$$u(x,1) = \psi_3(x) \quad \forall x \in l_3,$$

$y \in [0,1]$ bo'yicha tekis ravishda $\lim_{|x| \rightarrow \infty} u(x,y) = 0$ bo'ladi,

$a(x)D_{0x}^{1-\beta}[u(\theta_0(x))] + b(x)D_{x1}^{1-\beta}[u(\theta_1(x))] + c(x)u_y(x,0) + g(x)u(x,0) = d(x), \quad \forall x \in l_0$,
bu yerda $\psi_i(x)$, $a(x)$, $b(x)$, $c(x)$, $g(x)$, $d(x)$ - berilgan funksiyalar,
 $a^2(x) + b^2(x) + c^2(x) + g^2(x) \neq 0, \forall x \in \bar{l}_0$; $\psi_i(x)$ funksiyalar $x=0$ va $x=1$
nuqtalarda darajasi $1-2\beta$ kichik tartibda cheksizlikka aylanishi mumkin va
 $\psi_1(x) \in C(-\infty, 0)$, $\psi_2(x) \in C(1, +\infty)$, $\psi_3(x) \in C(-\infty, +\infty)$, yetarlicha katta $|x|$ lar
uchun

$$|\psi_i(x)| \leq M_1 |x|^{-1-\varepsilon_1}, (i=1,2), M_1, \varepsilon_1 = \text{const} > 0; |\psi_3(x)| \leq M_2 |x|^{-\varepsilon_2}, \varepsilon_2 = \text{const} > 0.$$

tengsizliklar qanoatlantiradi, bunda $D_{0x}^{1-\beta}[f(x)]$ va $D_{x1}^{1-\beta}[f(x)]$ - Riman-Liuvill
ma'nosidagi kasr tartibli differensial operatorlar.

Ushbu paragrafning birinchi punktining asosiy natijalarini keltiramiz.
Energiya integrallari usuli yordamida quyidagicha teorema isbotlanadi.

1-teopema. Aytaylik, $a(x)$, $b(x)$, $c(x)$, $g(x)$ funksiyalar

$$a(x) = x^{\beta+\varepsilon} a_0(x), \quad b(x) = (1-x)^{\beta+\varepsilon} b_0(x), \quad c(x) = [x(1-x)]^\varepsilon c_0(x);$$

$$a_0(x), b_0(x), c_0(x), g(x) \in C^1(\bar{l}_0); \quad \varepsilon = \text{const} > 0$$

$$q_0(x) = x^\varepsilon a_0(x) + (1-x)^\varepsilon b_0(x) - \frac{1}{\gamma_1} [x(1-x)]^\varepsilon c_0(x) \neq 0, \quad \forall x \in \bar{l}_0;$$

$$\frac{g(x)}{q_0(x)} \geq 0, \quad \frac{d}{dx} \left[\frac{x^\varepsilon a_0(x)}{q_0(x)} \right] \leq 0, \quad \frac{d}{dx} \left[\frac{(1-x)^\varepsilon b_0(x)}{q_0(x)} \right] \geq 0, \quad \forall x \in l_0$$

shartlarni qanoatlantirsin. U holda S_1^∞ masala bittadan ortiq yechimga ega emas.

Quyidagi teorema esa integral tenglamalar va Grin funksiyalari usuli
yordamida isbotlangan.

2-teopema. Aytaylik, 1-Teorema shartlari bajarilgan bo'lib, $a_0(x)$, $b_0(x)$,
 $c_0(x)$, $g(x) \in C^2[0,1]$, $d(x) \in C^2(0,1)$ bo'lsin, hamda $(0,1)$ intervalning oxirlarida
 $d(x)$ funksiya tartibi $1-2\beta$ dan kichik tartibda cheksizlikka aylanishi mumkin
bo'lsin. U holda S_1^∞ masalaning yechimi mavjud.

Ushbu paragrafning ikkinchi punktida (1) tenglama uchun huddi shunday Ω
chegaralanmagan aralash sohada ikkinchi siljishli masala tadqiq qilingan va
mavjudlik va yagonalik teoremlari isbotlangan.

Uchinchi paragrafida elliptiklik sohasi tekislikning birinchi chorakidan iborat
bo'lgan chegaralanmagan sohada aralash tipdagi spektral parametrli Triкоми

umumiy tenglamasi uchun Bitsadze-Samarskiy tipidagi ikkita masala tadqiq qilingan.

Ushbu paragrafning birinchi punktida

$$\operatorname{sign} y |y|^m u_{xx} + u_{yy} - \lambda^2 |y|^m u = 0, \quad m = \operatorname{const} > 0 \quad (2)$$

tenglama $\Omega = \Omega_1 \cup l_1 \cup \Omega_2$ chegaralanmagan aralash sohada qaralgan, bu yerda $\Omega_1 = \{(x, y) : x > 0, y > 0\}$, Ω_2 soha $y < 0$ yarim tekislikdagi $y = 0$ to'g'ri chiziqning AB kesmasi va (2) tenglamani $A(0, 0)$, $B(1, 0)$ nuqtalardan chiquvchi xarakteristikalar bilan chegaralangan. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$l_1 = \{(x, y) : 0 < x < 1, y = 0\}, \quad l_2 = \{(x, y) : x > 1, y = 0\}, \quad l_3 = \{(x, y) : y > 0, x = 0\}.$$

Faraz qilaylik, $\lambda \in \mathbb{R}$, bunda agar $y > 0$ bo'lsa $\lambda = \lambda_1$ va $y < 0$ bo'lganda esa $\lambda = \lambda_2$ bo'ladi.

BS_1^∞ **masala.** Quyidagi xossalarga ega bo'lgan $u(x, y)$ funksiya topilsin:

1) $u(x, y) \in C(\Omega \cup \bar{l}_2 \cup \bar{l}_3 \cup \overline{AC} \cup \overline{BC}) \cap C^1(\Omega) \cap C^2(\Omega_1 \cup \Omega_2)$, bundan tashqari $u_y(x, 0)$ hosila $x = 0$ yoki $x = 1$ nuqtalarda darajasi $1 - 2\beta$ kichik tartibda cheksizlikka aylanishi mumkin;

2) Ω_1 va Ω_2 sohalarda (1) tenglamani qanoatlantiradi;

3) quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi

$$u(0, y) = \varphi(y), \quad 0 \leq y < +\infty$$

$$\lim_{R \rightarrow +\infty} u(x, y) = 0, \quad y \geq 0, x \geq 0$$

$$u_y(x, 0) = \psi(x), \quad 1 < x < +\infty$$

$$A_{0x}^{1, \lambda_2} \{D_{0x}^{1-\beta} [u(\theta_0(x))]\} + c(x)u_y(x, 0) = d(x), (x, 0) \in l_1$$

bu yerda $\varphi(y)$, $\psi(x)$, $c(x)$, $d(x)$ - berilgan funksiyalar, $\varphi(y) \in C[0, +\infty)$ va yetarlicha katta y uchun $|\varphi(y)| \leq M_1 y^{-1-m/2-\varepsilon_3}$ tengsizlik o'rinli; $\psi(x) \in C(1, +\infty)$ va yetarlicha katta x lar uchun $|\psi(x)| \leq M_2 x^{2\beta-1-\varepsilon_4}$ tengsizlik o'rinli va $x \rightarrow 1$ da darajasi $1 - 2\beta$ dan kichik tartibda cheksizlikka aylanishi mumkin; $c(x) \in C^1[0, 1]$, $d(x) \in C^2(0, 1)$ va $d(x)$, $x \rightarrow 0$ yoki $x \rightarrow 1$ darajasi $1 - 2\beta$ dan kichik tartibda cheksizlikka aylanishi mumkin. Bundan tashqari, $R^2 = x^2 + [2/(m+2)]^2 y^{m+2}$, $M_1, M_2 = \operatorname{const} > 0$, $\varepsilon_3, \varepsilon_4 = \operatorname{const} > 0$.

Bu paragrafning birinchi punktining asosiy natijalari quyidagicha:

3-teorema. Aytaylik

$$q(x) = 1 - \gamma \Gamma(\beta) x^\beta c(x) > 0, x \in [0, 1]; \quad \frac{d}{dx} [q(x)] \geq 0, x \in (0, 1)$$

$$\gamma = \frac{2 \sin(2\pi\beta) \Gamma(1-\beta) \Gamma(2\beta)}{\pi(2-4\beta)^{2\beta}}$$

shartlar bajarilsin. U holda BS_1^∞ masala bittadan ortiq yechimga ega emas.

Ushbu masala yechimining yagonaligi energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan.

4-teorema. Aytaylik, $c(x) = (1-x)^\delta c_0(x)$, $\delta > 0$, $c_0(x) \in C^2[0, 1]$ bo'lsin va 3-teorema shartlari bajarilsin. U holda BS_1^∞ masalaning yechimi mavjud.

BS_1^∞ masala yechimining mavjudligi Grin funksiyasi usuli va integral tenglamalar usuli bilan isbotlangan.

Bu paragrafning ikkinchi punktida (2) tenglama uchun yuqoridagi Ω chegaralanmagan aralash sohada Bitsadze-Samarskiy tipidagi ikkinchi masala tadqiq qilingan, mavjudlik va yagonalik teoremlari isbotlangan.

Birinchi bobning to'rtinchi paragrafida aralash sohaning elliptik qismi yarim tekislikdan iborat (2) tenglama uchun siljishli masala tadqiq qilingan. Tadqiq qilinayotgan masala yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremlar isbotlangan.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi "Kasr hosilali aralash tipidagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalar"** deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafida kasr tartibli Riman-Liuvil xususiy hosilali tenglamasi uchun siljishli masala o'rganiladi, bunda xarakteristikaning bir qismi kasr tartibli integro-differensial operatorlari bilan nolokal chegaraviy shartlardan ozod qilingan.

Aytaylik, D soha $y > 0$ yarim tekislikda yotadigan $x = 0$, $x = 1$ va $y = 1$ chiziqlarning AA_0 , BB_0 va A_0B_0 kesmalari bilan va quyidagi

$$\begin{cases} u_{xx} - D_{0,y}^\gamma u = 0, \gamma \in (0, 1), y > 0, \\ -(-y)^m u_{xx} + u_{yy} + \frac{\alpha_0}{(-y)^{1-\frac{m}{2}}} u_x + \frac{\beta_0}{y} u_y, y < 0, \end{cases} \quad (3)$$

tenglamaning $y < 0$ yarim tekislikdagi

$AC: x - [2 / (m + 2)](-y)^{(m+2)/2} = 0$, $BC: x + [2 / (m + 2)](-y)^{(m+2)/2} = 1$ xarakteristikalarini bilan chegaralangan chekli soha bo'lsin. Ushbu (3) tenglamada $m > 0$, $|\alpha_0| < (m + 2) / 2$, $1 < \beta_0 < (m + 4) / 2$, va $D_{0,y}^\gamma$ Riemann-Liuvilning kasr tartibli hosilasi quyidagicha aniqlanadi:

$$(D_{0,y}^\gamma u)(x, y) = \frac{\partial}{\partial y} \frac{1}{\Gamma(1-\gamma)} \int_0^y \frac{u(x, t) dt}{(y-t)^\gamma}, \quad (0 < \gamma < 1, y > 0).$$

Aytaylik, $D^+ = D \cap (y > 0)$, $D^- = D \cap (y < 0)$ bo'lsin.

TS masala. Quydagi xossalarga ega bo'lgan $u(x, y)$ funksiya topilsin:

$$1) y^{1-\gamma} u \in C(\bar{D}^+), u(x, y) \in C(\bar{D}^- \setminus \overline{OB}), u_{xx} \in C(D^+ \cup D^-), u_{yy} \in C(D^-)$$

$$y^{1-\gamma} (y^{1-\gamma} u)_y \in C(D^+ \cup \{(x, y): 0 < x < 1, y = 0\}),$$

2) D^+ va D^- sohalarda (3) tenglamani qanoatlantiradi;

3) quyidagi chegaraviy shartlarni

$$u(0, y) = \varphi_1(y), u(1, y) = \varphi_2(y), 0 \leq y \leq 1,$$

$$x^{\bar{\alpha}} D_{0,x}^{1-\beta} x^{1-\bar{\alpha}-\bar{\beta}} u[\theta_0(x)] + (1-x)^{\bar{\beta}} \rho(x) D_{x,1}^{1-\bar{\alpha}} (1-x)^{1-\bar{\alpha}-\bar{\beta}} u[\theta_k(x)] =$$

$$= \mu_1 D_{0,x}^{1-\bar{\alpha}-\bar{\beta}} \tau(x) - \mu_2 D_{x,1}^{1-\bar{\alpha}-\bar{\beta}} \tau(x) + f(x), x \in [0, 1]$$

va ulanish shartlarni

$$\lim_{y \rightarrow +0} y^{1-\gamma} u(x, y) = \lim_{y \rightarrow -0} (-y)^{\beta_0-1} u(x, y), x \in [0, 1]$$

$$\lim_{y \rightarrow +0} y^{1-\gamma} (y^{1-\gamma} u(x, y))_y = \lim_{y \rightarrow -0} (-y)^{2-\beta_0} ((-y)^{\beta_0-1} u(x, y))_y, x \in I = (0, 1)$$

qanoatlantiradi.

Bu yerda $\bar{\alpha} = \frac{m+2(2-\beta_0+\alpha_0)}{2(m+2)}$, $\bar{\beta} = \frac{m+2(2-\beta_0-\alpha_0)}{2(m+2)}$ va $\varphi_1(y), \varphi_2(y)$
 $\rho(x), f(x), \tau(x) = \lim_{y \rightarrow -0} (-y)^{\beta_0-1} u(x, y)$ - berilgan funksiyalar; bu yerda $f(0) = 0$,
 $\rho(x), f(x) \in C(\bar{I}) \cap C^2(I)$, $y^{1-\gamma} \varphi_1(y), y^{1-\gamma} \varphi_2(y) \in C([0, 1])$, $\varphi_1(0) = \varphi_2(0) = 0$;
 $\mu_1 = \frac{\Gamma(\bar{\alpha} + \bar{\beta})}{\Gamma(\bar{\beta})} \left(\frac{m+2}{4}\right)^{\bar{\alpha}+\bar{\beta}-1}$ va $\mu_2 = \left(\frac{4}{m+2}\right)^{1-\bar{\alpha}-\bar{\beta}} \frac{(\Gamma(\bar{\alpha} + \bar{\beta})\Gamma(1-\bar{\beta}))}{(\Gamma(\bar{\alpha})\Gamma(1-\bar{\alpha}))}$ o'zgar-
 maslar; AC xarakteristikaning $(x_0, 0) (x_0 \in I)$ nuqtasidan chiqadigan (3)
 tenglamaning xarakteristikasi bilan kesishish nuqtasi esa $\theta_0(x_0)$ dan iborat; (3)
 tenglamaning BC xarakteristikasi bilan $x - \frac{2k}{m+2} (-y)^{\frac{m+2}{2}} = x_0, k = \text{const} > 1$, egri

$$\text{chiziqning kesishish nuqtasi } \theta_k(x_0) = \left(\frac{x_0 + k}{1+k}, -\left(\frac{(m+2)(1-x_0)}{2(1+k)} \right)^{\frac{2}{m+2}} \right).$$

Ushbu paragrafning asosiy natijasi:

5-teopema. Aytaylik, $|\omega(x)| < 1$ bo'lsin, bu yerda $\omega(x) = \frac{\Gamma(1-\bar{\alpha})}{\Gamma(1-\bar{\beta})} \rho(x)$,
 $x \in [0, 1]$, u holda TS masalaning yechimi mavjud va yagona.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida kasr tartibli Riman-Liuvill xususiy hosilali va kichik hadli aralash tipdagi tenglama uchun chegaralanmagan sohada nolokal masala tadqiq qilingan.

«Subdiffuziya tenglamalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar» deb nomlangan dissertatsiyaning **uchinchi bobida** Gerasimov – Kaputo va Riman-Liuvill kasr tartibli hosilali tenglamalar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar tadqiq etilgan. Subdiffuziya tenglamasidan model tenglama sifatida foydalanib, anomal diffuzion jarayonlarni tahlil qilishda kasr hosilaning tartibi ko‘pincha noma‘lum va uni bevosita topish qiyin. Ushbu parametrlarni aniqlash uchun yechim to‘g‘risida bilvosita kuzatilgan ba‘zi fizik ma‘lumotlarga asoslanib, ushbu miqdorni aniqlashning teskari masalalarini o‘rganish kerak. Jarayonning xususiyatiga qarab, masalan, agar jarayonning dastlabki bosqichi ko‘rib chiqilsa, Gerasimov-Kaputoning kasr hosilalari ishlatiladi, agar jarayon barqarorlashgan bo‘lsa, u holda Riemann-Liuvilning kasr hosilalari ishlatiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, diskret spektrga ega bo‘lgan ixtiyoriy musbat o‘z-o‘ziga qo‘shma operator bilan subdiffuziya tenglamasida vaqt bo‘yicha Riemann-Liuville ma‘nosida kasr hosilasining tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masala yechimining yagonaligi va mavjudligi isbotlangan.

Ushbu dissertatsiya ishida uzluksiz spektrga ega bo‘lgan ixtiyoriy musbat o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorli va vaqt bo‘yicha Gerasimov-Kaputo yoki Riman-Liuvil ma‘nosida kasr hosilali subdiffuziya tenglamasida kasr hosilaning tartibini aniqlash bo‘yicha teskari masala yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan. Ushbu bobda bir parametrlilik masalalardan tashqari, mos ravishda ikki parametrlilik masalalar ham o‘rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida $A(D)$ elliptik operatorli subdiffuziya tenglamasi uchun $\mathbb{R}^N$ boshlang‘ich-chegaraviy masala tadqiq qilingan.

Aytaylik, $A(D) = \sum_{|\alpha|=m} a_\alpha D^\alpha$ – o‘zgarmas koeffitsientli bir jinsli $m = 2l$ juft tartibli simmetrik elliptik differensial operator, ya’ni barcha $\xi \neq 0$ uchun $A(\xi) > 0$ bo‘lsin. Bunda $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_N)$ mul’tiindeks va $D = (D_1, D_2, \dots, D_N)$, $D_j = \frac{1}{i} \frac{\partial}{\partial x_j}$, $i = \sqrt{-1}$.

Ushbu $[0, \infty)$ oraliqda aniqlangan h funksiyaning Riman-Liuvil ma'nosidagi $\rho < 0$ kasr tartibli integrali quyidagi

$$I_t^\rho h(t) = \frac{1}{\Gamma(-\rho)} \int_0^t \frac{h(\xi)}{(t-\xi)^{\rho+1}} d\xi, \quad t > 0,$$

ko‘rinishga ega. Bunda tenglikning o‘ng tomonidagi integral yaqinlashuvchiligi talab qilinadi. Bu yerda $\Gamma(\rho)$ – Eylerning gamma funksiyasi. Ushbu ta’rifdan foydalanib, ρ , $0 < \rho < 1$ tartibli Gerasimov-Kaputo kasr tartibli hosilani

$$\partial_t^\rho h(t) = I_t^{\rho-1} \frac{d}{dt} h(t)$$

shaklda aniqlash mumkin.

Birinchi to'g'ri masala. $\rho \in (0, 1]$ berilgan son va $L_2^\tau(\mathbb{R}^N)$ – Sobolev funksiyalar sinfi bo'lsin. Quyidagi boshlag'ich-chegaraviy masalani qaraymiz:

$$\partial_{0t}^\rho u(x, t) + A(D)u(x, t) = 0, x \in \mathbb{R}^N, 0 < t < T, \quad (5)$$

$$u(x, 0) = \varphi(x), x \in \mathbb{R}^N \quad (6)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x, t) \in L_2^m(\mathbb{R}^N)$ funksiya topilsin. Bu yerda $\varphi(x)$ -berilgan uzluksiz funksiya.

1-ta'rif. $\partial_{0t}^\rho u(x, t), A(D)u(x, t) \in C(\mathbb{R}^N \times (0, T))$ xossalarga ega va (5)-(6) shartlarni qanoatlantiradigan $t \in [0, T)$ bo'yicha har qanday $x \in \mathbb{R}^N$ uchun absolyut uzluksiz $u(x, t) \in C(\mathbb{R}^N \times [0, T))$ funksiya to'g'ri masalaning klassik yechimi deb ataladi.

$E_\rho(t)$ orqali quyidagicha aniqlangan

$$E_\rho(t) = \sum_{k=0}^{\infty} \frac{t^k}{\Gamma(\rho k + 1)},$$

Mittag-Leffler funksiyasini belgilaymiz.

Ushbu $\hat{f}(\xi)$ orqali $f(x) \in L_2(\mathbb{R}^N)$ funksiyaning Furje almashtirishini belgilaymiz:

$$\hat{f}(\xi) = (2\pi)^{-N} \int_{\mathbb{R}^N} f(x) e^{-ix\xi} dx.$$

To'g'ri masalani yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremani keltiramiz:

6-teopema. Aytaylik, $\tau > \frac{N}{2}$ va $\varphi \in L_2^\tau(\mathbb{R}^N)$. U holda (5)-(6) to'g'ri masala yagona yechimga ega va bu yechim quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$u(x, t) = \int_{\mathbb{R}^N} E_\rho(-A(\xi)t^\rho) \hat{\varphi}(\xi) e^{ix\xi} d\xi. \quad (7)$$

Bunda har qanday $t \in [0, T)$ uchun integral $x \in \mathbb{R}^N$ da tekis va absolyut yaqinlashadi. Bundan tashqari, (7) yechim quyidagi xususiyatga ega

$$\lim_{|x| \rightarrow \infty} D^\alpha u(x, t) = 0, |\alpha| \leq m, 0 < t < T.$$

Birinchi teskari masala. Ushbu (5) tenglamadagi kasr hosilasining ρ tartibini noma'lum parametr sifatida qaraymiz. Teskari masalani qo'yishda biz $\varphi \in L_1(\mathbb{R}^N)$ deb olamiz. Bundan kelib chiqadiki, $\hat{\varphi}(\xi)$ va

$\hat{u}(\xi, t) = E_\rho(-A(\xi)t^\rho)\hat{\varphi}(\xi)$, $t \in [0, t]$ funksiyalar $\xi \in \mathbb{R}^N$ o'zgaruvchi bo'yicha uzluksiz. Biz $\xi_0 \neq 0$ vektorni shunday fiksirlaymizki, $\hat{\varphi}(\xi_0) \neq 0$ bo'lsin va $\lambda_0 = A(\xi_0) > 0$ deb belgilaymiz.

Ushbu ρ tartibni aniqlash uchun quyidagi qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanamiz:

$$U(t_0, \rho) \equiv \left| \hat{u}(\xi_0, t_0) \right| = d_0, \quad (8)$$

bunda $t_0, 0 < t_0 < T$, - tayinlangan vaqt.

Ushbu (5) - (6) masala (8) qo'shimcha shart bilan birgalikda teskari masala deb ataladi.

Teskari masalani yechish uchun biz $\rho_0 \in (0, 1)$ sonni fiksirlaymiz va masalani $\rho \in [\rho_0, 1]$ uchun ko'rib chiqamiz.

2- ta'rif. To'g'ri masalaning $u(x, t)$ yechimi va $\rho \in [\rho_0, 1]$ parametrdan iborat $\{u(x, t), \rho\}$ juftlik (5)-(6), (8) teskari masalaning klassik yechimi deb ataladi.

Ushbu punktning asosiy natijasi quyidagicha:

7-teorema. . Shunday $T_0 = T_0(\lambda_0, \rho_0) > 0$ o'zgarimas mavjudki, $T_0 \leq t_0 < T$ bo'lganda (5)-(6), (8) teskari masala yagona $\{u(x, t), \rho\}$ yechimga ega bo'lishi uchun quyidagi shart bajarilishi zarur va yetarli:

$$e^{-\lambda_0 t_0} \leq \frac{d_0}{\left| \hat{\varphi}(\xi_0) \right|} \leq E_{\rho_0}(-\lambda_0 t_0^{\rho_0}). \quad (9)$$

Ushbu paragrafning ikkinchi punktida subdiffuziya tenglamalarida vaqt bo'yicha kasr hosilaning tartibi bilan bir qatorda fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha hosila tartibini ham aniqlashning teskari masalasi o'rganilgan.

Ikkinchi to'g'ri masala. $\rho \in (0, 1]$ va $\sigma \in (0, 1]$ berilgan sonlar bo'lsin. Quyidagi boshlang'ich-chegaraviy masalani qaraymiz:

$$\partial_{0t}^\rho v(x, t) + \hat{A}^\sigma v(x, t) = 0, x \in \mathbb{R}^N, 0 < t < T, \quad (10)$$

$$v(x, 0) = \varphi(x), x \in \mathbb{R}^N. \quad (11)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $v(x, t) \in D(\hat{A}^\sigma)$ yechimini topish masalasini qaraymiz. Bu yerda $\varphi(x)$ - berilgan funksiya va biror $\tau > \frac{N}{2}$ uchun $\varphi \in L_2^\tau(\mathbb{R}^N)$.

Bu erda (10)-(11) masalaning yechimi (5)-(6) masalaga o'xshash tarzda topiladi. Xuddi shu tarzda, 6-teoremada bo'lgani kabi, ikkinchi to'g'ri masalaning yagona yechimi

$$v(x, t) = \int_{\mathbb{R}^N} E_\rho(-A^\sigma(\xi)t^\rho)\hat{\varphi}(\xi)e^{ix\xi}d\xi$$

shaklga ega ekanligi isbotlangan, bu yerda integral barcha $t \in [0, T)$ uchun $x \in \mathbb{R}^N$ da tekis va absolyut yaqinlashadi.

Ikkinchi teskari masala. $\rho_0 > 0$ va $\sigma_0 > 0$ fiksirlangan sonlar bo'lsin, ikkinchi to'g'ri masalada $\rho \in [\rho_0, 1]$ va $\sigma \in [\sigma_0, 1]$ parametrlar noma'lum sonlar deb qaraymiz. Noma'lum sonlar ikkita bo'lganligi sababli, bizga ikkita qo'shimcha shart kerak. Ushbu shartlarni aniqlash uchun yana $\varphi \in L_1(\mathbb{R}^N)$ bo'lsin deb qaraymiz. U holda, $\hat{\varphi}(\xi)$ va $\hat{\nu}(\xi, t)$ funksiyalar ξ bo'yicha uzluksiz. Qo'shimcha shartlar sifatida biz quyidagilarni olamiz:

$$V(\xi_0, t_0, \rho, \sigma) = |\hat{\nu}(\xi_0, t_0)| = d_0, t_0 \geq T_0(1, \rho_0), \quad (12)$$

